

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 5 сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад. С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц. А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д. проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф. С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова, фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц. М.Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф. А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф. Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари: – п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррирлар: Н.Юсупов, Г.Акмалжонова

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида халқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 11.05.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (Баённома № 5). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



4. **Иброҳим Ҳаққул**. Тасаввуф ва шеърят. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
5. **Комилов Нажмиддин**. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К 1. —Т.: Ёзувчи, 1996.
6. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи: Б.Ҳасанов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси “Фан” нашриёти, 1993.
7. **Усмон Турар**. Тасаввуф тарихи. (Нодирхон Ҳасан тарж.) – Т.: “Истиқлол”, 1999.
8. **Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф**. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Т.: “Hilol-Nashr”, 2017. – 628 бет.

FRANSUZ FE'LLARI ORASIDAGI ETIMOLOGIK DUBLETLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI

Shakirov Rustam Sobirovich
Buxoro davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi
email: r.s.shakirov@buxdu.uz

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada lotin tilidagi bir so'zdan kirib kelgan ikkita fransuz fe'llarining kelib chiqishi, qo'llanilishi va o'zbek tiliga tarjima qilinish masalalri o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** lotin tili, fe'llar, etimologik dubletlar, akademik dubletlar, leksik dubletlar, so'zlarning etimologiyasi, fe'llarning qo'llanilishi, tarjima.*

ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ДУБЛЕТЫ В СИСТЕМЕ ФРАНЦУЗСКИХ ГЛАГОЛОВ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Шакиров Рустам Собирович

Бухарский Государственный Университет

Преподаватель кафедры переводоведения и лингводидактики
email: r.s.shakirov@buxdu.uz

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются происхождение, использование и перевод на узбекский язык двух французских глаголов, которые происходят от одного и того же слова на латыни.*

***Ключевые слова:** латынь, глаголы, этимологические дуплеты, академические дуплеты, лексические дуплеты, этимология слов, употребление глаголов, перевод.*

ETYMOLOGICAL DOUBLET BETWEEN FRENCH VERBS AND THEIR USE

Shakirov Rustam Sobirovich

Bukhara State University

A teacher at the department of Translation Studies and Linguodidactics
email: r.s.shakirov@buxdu.uz

***Abstract.** In this article, we will look at the origin, use and translation into Uzbek of two French verbs that come from the same word in Latin.*



Keywords : *Latin, verbs, etymological doublets, academic doublets, lexical doublets, etymology of words, use of verbs, translation.*

Ma'lumki, har bir til doim rivojlanib, boyib boradi. Tillarning boyib borishining asosiy manbalaridan biri – boshqa tillardan kirib keladigan so'zlar ekanligi hech kimga sir emas va bu jarayon har xil davrda va har xil sharoitda bo'lishi mumkin.

Etimologik dubletlar eng qadimiy va eng keng leksiko-semantik kategoriyalardan birini anglatadi. Etimologik dubletlar - bu etimologik jihatdan bir xil ildizga qaytadigan, ammo tilda turli ma'no, talaffuz va imloga ega so'zlar [3, 288].

Barcha tillar, ayniqsa Yevropa tillari, kabi fransuz tiliga ham lotin tilidan ko'pgina so'zlar kirib kelgan. Fransuz tilini lotin tilidan ikki karra qarzidor deb aytsak noto'g'ri bo'lmasa kerak.

Ko'pgina fransuzcha so'zlar klassik lotin tilidan tortib to hozirgi fransuz tiligacha bo'lgan evolyutsiyaning natijasidir. Bir necha asrlik evolyutsiya davomida lotin tilidagi so'zlar nafaqat bir yoki bir necha harflar yoki bo'g'inlarni yo'qotishgan ya'ni deformatsiyaga uchragan, balkim ularning ishlatilish doirasi ham yoki kengaygan, yoki toraygan.

Ba'zan lotin tilidagi bir so'zning o'zidan ikki yoki undan ko'p so'zlar o'zlashtirilishi mumkin. Bunda klasik lotin tilidagi so'z asrlar davomida fonetik va semantik o'zgarishlarga uchraydi. O'zgarishlar bir necha bosqichda davom etishini hisobga olsak, so'zlar har xil davrda o'zlashtirilishi mumkin. Agar o'zlashtirilgan ikki ta so'zning biri o'zgarishlarga uchragan so'zlardan o'zlashtirilsa-yu, ikkinchisi klasik lotin tilidan ya'ni asl lotin tilidan olinadigan bo'lsa bunday hodisa, "etimologik dubletlarlar" deb ataladi. "Akademik dubletlar" yoki "leksik dubletlar" deb ham atalishi mumkin [4, 65].

Fransuz tilidagi fe'llar orasida ham "etimologik dubletlar" mavjud. Masalan: écouter/ausculter; hurler/ululer; nager/naviguer; octroyer/autoriser; mastiquer/mâcher; circuler/cercler; cailler/coaguler; livrer/libérer; oeuvrer/opérer; recouvrer/récupérer; sevrer/séparer; apprendre/appréhender; dessiner/désigner, employer/impliquer; peser/penser; relier/répliquer; souvenir/subvenir; tâcher/taxer; tremper/tempérer.

Xo'sh, fe'llarni birin-ketin o'rganishni boshlasak. Hozirgi kunda eng ishonchli bo'lgan fransuzcha-o'zbekcha lug'at hisoblangan, Markaziy Osiyoni tadqiq qilish instituti, O'zbekistondagi Fransiya elchixonasining madaniyat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'limi bilan hamkorlikda yaratilgan va 2008-yilda chop etilgan lug'atga murojaat qilsak. Unda berilishicha:

écouter vt 1. eshitmoq, tinglamoq, quloq solmoq; *écouter de la musique* musiqa eshitmoq, tinglamoq; 2. quloqqa olmoq, eshitib aytilgancha ko'nmoq, unga amal qilmoq; *écouter les conseils d'un ami* o'rtog'ining maslahatlariga ko'nmoq[180,1].

Va:

ausculter vt *méd* eshitib ko'rmoq, quloq solib tekshirmoq; *ausculter un malade* bemorni eshitib ko'rmoq[48,1]. Demak, bu ikkala fe'llarni sinonimik qatorga qisman kiritsak bo'ladi. Nega qisman? Chunki sinonimik qatordagi so'zlarning o'rnini bir-biri bilan almashtirilganda ma'no o'zgarmasligi kerak, yoki ma'no qisman saqlanishi kerak. Keling bu fe'llarni gapda qo'llab ko'rsak:

Le médecin écoute un malade – Doktor kasalni(ng so'zlarini) tinglayapti

Le médecin ausculte un malade – Doktor kasalni(ng ichki a'zolarini) eshityapti



Ya'ni, **écouter** fe'li eshitmoq, quloq solmoq yoki tinglamoq ma'nolarida ishlatiladi, lekin **ausculter** fe'li asosan tibbiyot sohasida ishlatiladigan fe'l sanaladi va uni ichki a'zolari (yurakni, oshqozonni) eshitmoq deb tarjima qilish ma'qul.

Demak, har ikkala holatda ham quloq asosiy vositachi vazifasida kelyapti, lekin ularni aniq sinonimlar deb aytish qiyin masala. Keling endi ularning kelib chiqishini o'rgansak. Agar biz fransuz tilidagi so'zlarning kelib chiqishini o'rganadigan bo'lsak **doublets lexicaux** (leksik dubletlar), **doublets étymologiques** (etimologik dubletlar) yoki **doublet savant et populaire** tushunchalariga duch kelamiz. Biz o'rganayotgan fe'llarimiz esa aynan leksik dubletlar yoki etimologik dubletlar sanaladi. Ikkala fe'l ham lotin tilidagi "auscultare" fe'lidan kelib chiqqan. Ecouter fe'li avval o'zlashtirilgan, bu fe'l oddiy xalq tomonidan o'zlashtirilgan, vaqt o'tishi bilan auscultare → ecultar → écouter shaklida ishlatilgan. Ausculter fe'li esa XIII-XIV asrlarda Renessans davrida ilm-fanning rivojlanishi natijasida lotin tilidagi ayni o'sha "auscultare" fe'lidan olingan. Ya'ni biri xalq tomonidan o'zlashtirilgan va xalq o'z tiliga moslashtirib olgan, ikkinchisi keyinchalik olimlar tomonidan o'zlashtirilgan, shuning uchun ularni **doublets savant et populaire** (akademik va ommabop dubletlar) ham deb ataladi [4, 121].

Xullas, bu ikkala so'z umuman boshqa-boshqa so'zlar hisoblanadi. Bir so'zdan kelib chiqishiga qaramasdan bu ikkala fe'l o'z navbatida rivojlanishda, keng ma'noda qo'llanilishda davom etayapti. Keling endi bu ikki fe'lning semantikasiga e'tibor qaratsak. Avval **écouter** keyinchalik ausculter fe'lini o'rganib chiqamiz.

Bunda fransuz tilining izohli lug'ati "Larousse" dan foydalanamiz. Unda **écouter** fe'lining quyidagi ma'nolarda ishlatilishi berilgan :

- Être attentif à un bruit, à un son, à de la musique, etc., les entendre volontairement : Écouter de la musique.
- Prêter attention à ce que quelqu'un dit pour l'entendre et le comprendre : Écoute-moi quand je te parle.
- Être l'auditeur d'un chanteur, d'un orateur, de la radio, les entendre volontairement : J'écoute cette émission tous les soirs.
- Tendre l'oreille pour percevoir le bruit produit par quelqu'un, quelque chose : Écouter le cœur battre. Écouter la pluie qui tombe.
- Être attentif à l'apparition d'un bruit, à la qualité d'un son, d'une musique, d'un propos : Écouter si un enfant pleure.
- Accepter d'entendre ce que quelqu'un a à dire, lui donner audience : Il n'a pas voulu m'écouter.
- Tenir compte de ce que dit quelqu'un ; suivre : Professeur qui sait se faire écouter de ses élèves [5],[6].

Ya'ni:

1. Shovqin, tovush, qo'shiqqa e'tiborli bo'lish, ya'ni ularni tinglash: Qo'shiq eshitmoq
2. Kimnidir tinglamoq va tushunmoq: Menga qara (eshit va tushun), senga gapiryapman
3. Bironbir qo'shiqchi, notiq, radio tinglovchisi bo'lmoq: Men ushbu tungi eshittirishning tinglovchisiman.



4. Bironbir kishi yoki narsa tomonidan chiqarilayotgan shovqinga quloq tutmoq: Yurak urishiga quloq tutmoq, Yomg'ir tomchilariga quloq tutmoq.

5. Bironbir shovqin, tovush yoki qo'shiqning chiqishini payqab qolmoq, eshitib qolmoq: bola yig'isini eshitib qolmoq

6. Birovning gapiga e'tibor qaratmoq: U mening gapimga e'tibor qaratmayapti.

7. Birovning aytganiga amal qilmoq, ergashmoq: O'qituvchi o'z o'quvchilarini ergashtira oladi.

Ausculter fe'lining esa quyidagi ishlatilish holatlari berilgan :

- Pratiquer l'auscultation d'un patient.
- Examiner avec attention une situation, quelque chose, pour en repérer les points faibles, les points forts : Ausculter le marché financier.
- Procéder à l'auscultation d'un ouvrage d'art [5],[6].

Ya'ni:

1. Bemorni tekshirish jarayonini amalga oshirish.

2. Bironbir holatning kuchsiz yoki kuchli tomonlarini aniqlash uchun diqqat bilan kuzatish: Moliya bozoridagi holatni kuzatmoq.

3. San'at asariga diqqat bilan qaramoq, kuzatmoq.

Ko'rinib turiganidek, asli kelib chiqishi bir bo'lgani bilan bu ikki fe'l orasida deyarli aloqa qolmagan, va ularni bog'lab turuvchi quloq vositasi ham ikkinchi fe'lda faqatgina tibbiyot sohasidagi nazorat qilish tekshirish ma'nosining bir elementi bo'lib qolmoqda, qolgan holatlarda asosiy vositachi ko'z yoki aql-idrok bo'lib xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, fransuz tilida so'zlarning ishlatilish doirasi kengayib bormoqda va polisemantik tushuncha bora-bora oddiy holatga aylanib qolishi aniq va ravshan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balci B. va boshq. Fransuzcha-o'zbekcha lug'at, Toshkent 2008.
2. Chollet I., Robert J.-M., Les verbes et leurs prépositions, CLE International, 2007.
3. Антрушина Г. Б., Лексикология английского языка : учеб. пособие для студентов, М. : Дрофа, 2000.
4. <http://www.academie-francaise.fr/les-doublets-etymologiques>
5. <https://dictionnaire.lerobert.com/>
6. <https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais-monolingue/>



69	Хилватий ижодида ахлоқий-таълимий шеърлар ва уларнинг жанр хусусиятлари Болтабоева О.Ю	342
70	Тилшуносликда гапнинг прагматик мазмуни ва унинг контекстда ўзгариши Холматова В.Н	347
71	Инглиз тилида парентетез бирликларнинг бадиий матндаги структур-семантик хусусиятлари Ибрагимова Г.М	353
72	“Она” концепти доирасидаги тушунчалар талқини Ибрагимова М.И, Иргашева Н.Д	357
73	Синекдоха асосидаги иборалар Кўчқарова О.А	362
74	Жек Лондоннинг «мартин иден» романида бадиий психологизм Қобилова Н.С	366
75	Ўзбек насрида Амир Темур образининг бадиий ифодаси хусусида Ғаниев М.А	371
76	О синтаксической основе изучения морфологии языка Саидова М.Ш	376
77	Инглиз ва ўзбек тилларида перифразаларнинг таснифи Кобилова А.Б	381
78	Замонавий инглиз оммавий ахборот воситаларида эвфемизмларнинг функционал аспекти хусусида Рабиева М. F	386
79	Nonverbal communication: classification of gestures and their gender analyses Rakhmatulleyeva U.Kh	390
80	Маснавий – воқеабанд шеър учун асос сифатида Раҳмонова Ш.М	394
81	The concept of nature in modern american literature Khayrulloeva N.N	399
82	Концепт» тушунчаси замонавий тилшуносликнинг ўрганиш объекти сифатида Султонкулов О.Ж	403
83	Ўзбек тилидаги лексик лакуналарни диалектизмлар билан тўлдириш (Дехқончилик лексикаси мисолида) Ҳасанов А.М	410
84	Алишер навоий талқинида тасаввуф тариқи Худайбердиев А.А	415
85	Fransuz fe'llari orasidagi etimologik dubletlar va ularning qo'llanilishi Shakirov R.S	420